

## Sog'lik garovi

Joriy yilning 6 noyabr kuni institut sport zalida 1-kurs talaba-yoshlarini yanada oliygohga qiziqtirish va ularning sport sohasidagi o'z qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilgan voleybol musobaqasi o'tkazildi. Musobaqada 6 ta guruhdan 6 ta jamoa ishtirok etdi. Yakuniy o'yinga 101-guruh va 108-guruh jamoalari yetib kelishdi. Unga ko'ra, 101-guruh jamoasi g'olib bo'ldi. Eng asosiysi, fakultet va institut jamoasiga yangi 5 nafar talaba-yoshlar saralab olindi. Musobaqani tashkillashtirishda fakultet jamoasi va jismoniy madaniyat va sport kafedrasiga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.



“Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash” fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari H. Boymatov axboroti

Institut matbuot xizmati boshlig'i R. Jumaniyozov